

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**HASANOV SUHROB SHAVKAT O‘G‘LI**

**HOZIRGI O‘ZBEK VA INGLIZ NASRIDA INTERMATN  
HODISASI TALQINI (ISAJON SULTON, BAHODIR QOBUL VA  
KADZUO ISIGURO ASARLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Hasanov Suhrob Shavkat o‘g‘li**

“Hozirgi o‘zbek va ingliz nasrida intermatn hodisasi talqini (Isajon Sulton, Bahodur Qobul va Kadzuo Isiguro asarlari misolida)” ..... 3

**Ҳасанов Сухроб Шавкат угли**

“Интерпретация феномена интертекстуальности в современной узбекской и английской прозе (на примере произведений Исажона Султона, Баҳодура Қобула и Кадзуо Исигуро)” ..... 23

**Hasanov Suhrob Shavkat ugli**

“Interpretation of the phenomenon of intertexts in current Uzbek and English prose (used in the works of Isajon Sulton, Bahodir Kobul and Kazuo Ishiguro)” ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**HASANOV SUHROB SHAVKAT O‘G‘LI**

**HOZIRGI O‘ZBEK VA INGLIZ NASRIDA INTERMATN  
HODISASI TALQINI (ISAJON SULTON, BAHODIR QOBUL VA  
KADZUO ISIGURO ASARLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.1.PhD/Fil1671 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Karimov Bahodir Nurmetovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Qarshibayeva Uljon Davirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Odilov Bahodir Baxtiyorovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi №\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori  
(DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon gumanitar ilm-fanida intermatnlik, matnlarning o‘zaro aloqalari, bir-biriga ta’sir masalalari, axborot va madaniy polifoniya sharoitida ma’no-mazmun evrilishlari, ijodkor psixologiyasi, obraz ruhiyatining ong osti faoliyatini ijtimoiy muhit bilan bog‘lash, shaxs va axborot o‘rtasidagi munosabatlar hamda idrok va olamni yangi manzarada ko‘rish ehtiyoji kabi masalalarga qiziqish ortib bormoqda. Natijada nazariy yondashuvlar ko‘p hollarda zamonaviy nasrda, jumladan, modernistik va postmodernistik matnlar yetarli darajada o‘rganilmagan o‘zbek adabiyotida ham vujudga kelayotgan shakllar va janrlar rang-barangligini ilmiy tavsiflashga ham ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois intermatnlik davrning qadriyatlar tizimini, uning tarixiy-madaniy kontekstini va adabiy an‘analarini aks ettirib, madaniy xotirani saqlash va keyingi avlodlarga uzatishning universal mexanizmi vazifasini bajarishga, e’tibor qaratish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb zaruriyatlardan biriga aylanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida intermatn poetikasi, uning nazariy masalalari, genezisi, vujudga kelish sabab va omillari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Har qanday adabiy asar ma’lum tarixiy-madaniy kontekstda yaratilib, o‘z zamonining qadriyatlar tizimini aks ettiradi, madaniy an‘analarni saqlaydi va ma’lum adabiy manbalarga tayanadi. Keyingi davrda faqat intermatnlikni adabiy matnlar o‘rtasidagi aloqasi emas, balki gibrad madaniyatlar, migrant adabiyoti, diasporik yozuvchilarda yuzaga kelayotgan intermatnlikning yangi shakllariga qiziqish ortib bormoqda. O‘zbek adabiyotining boshqa diasporik adabiyot bilan intertekstual aloqalari, yoki g‘arb matnlarining Sharq manbalariga bergan “javob matnlar”i ko‘p hollarda e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Intermatnlik asosan yozma adabiyot bilan bog‘lab kelinadi, lekin bugungi kunda kino, video, raqamli platformalar, podkast kabi vositalarda yuz berayotgan intermedial intermatnlikka e’tibor qaratilmagan. Intermatnlik nazariyasining adabiyotlararo, madaniyatlararo, platformalararo, va sun’iy intellektli yozuvlar bilan bog‘liq jihatlari hali global adabiyotshunoslikda o‘rganilishi zarur bo‘lgan vazifalardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan chuqur islohotlar adabiyotshunosligimizda ham o‘z aksini topa boshladi. Tabiiyki, bu yangilanish an‘anasi bugungi kunda mavjud bir qator ilmiy-nazariy masalalarni monografik asosda hal etishni taqozo qilmoqda. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, katta ahamiyatga ega”<sup>1</sup>. Natijada o‘zbek nasrida intermatnlikning o‘rnini tayin etish va uni jahon adabiyoti namunalari bilan qiyosiy o‘rganish ana shunday masalalardan biri hisoblanadi. Asrlar davomida yashab kelayotgan romantizm va realizm ijodiy metodlari hamda 15-20 yilda o‘z imkoniyatlarini sarflab bo‘lgan adabiy oqimlar tarixi shundan guvohlik beradi. Ayni damda Sharq, xususan, o‘zbek adabiyoti uchun ham postmodernizm hodisasi ana shunday yangi ijodiy hodisadir. Jahonning turli mintaqalarida mazkur hodisa

---

<sup>1</sup> Шавкат Мирзиёев: «Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди». «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табрик. [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz) (7-август. 2018-йил)

turlicha ko‘rinishlarda o‘zligini namoyon qilganligi bois sharq va o‘zbek adabiyoti misolida ochib berish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda intermatn, intermatnlik tushunchalarini tadqiq etish keng tarqaldi va bunda adabiy matndagi milliy-madaniy xotiraning faollashuvi, asarlarning badiiy olamida mujassamlashgan muallif ongining o‘ziga xosligi va betakrorligi, ijodiy tajribaxonasining tamoyillari hamda usullari masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Intermatnlik va intermatn hodisalarini xorijiy poststrukturalizm vakillari (Yu.Kristeva, R.Bart, J.Jenett, J.Derrida, N.P’ege-Gro, M.Yampolskiy va boshq.)<sup>2</sup>, rus olimlari (I.V.Arnold, I.P.Ilin, Yu.N.Karaulov, V.P.Moskvin, K.P.Sidorenko, Yu.P.Solodub, Yu.S.Stepanov, N.A.Kuzmina, N.A.Fateeva va boshq.)<sup>3</sup> tomonidan keng tadqiq

<sup>2</sup> Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман / Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – М.: Прогресс, 2000. – С. 427-457.; Кристева Ю. Семиотика: Исследования по семанализу / пер. с фр. Е.А. Орловой. – М.: Академический проект, 2013. – 285 с.; Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. Москва: 1994, – 467 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Советская Россия, 1979. – 363 с.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1986. – 445 с.; Г.К.Косикова. – М.: Прогресс: Универс, 1994. – 615 с.; Лотман Ю.М. Статьи по семиотике культуры и искусства. – СПб.: Академический проект, 2002. – 544 с.; Ямпольский М. Б. Память Тиресия: интертекстуальность и кинематограф. – М.: Инфра-М, 1993. – С. 408.; Пьеге-Гро Натали Введение в теорию интертекстуальности: Пер. с фр. / Общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – 240 с.; Gérard GENETTE, Palimpsestes: la littérature au second degré, Paris, Éditions du Seuil, 1982, – 468 p; Derrida J. The Law of Genre: On Narrative. Chicago: University of Chicago Press, 1981. – 270 p.

<sup>3</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: УРСС, 2004. – 216 с.; Арнольд И. В. Проблемы диалогизма, интертекстуальности и герменевтики (в интерпретации художественного текста) Текст. / И. В. Арнольд. СПб.: «Образование», 1995. – С. 60. Арнольд И. В. Проблемы интертекстуальности Текст. / И. В. Арнольд // Вестник СПбГУ. Сер. 2: История, языкознание, литературоведение. -Вып. 4 (№23), 1992. – С. 53-61. Арнольд И. В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность Текст. / И. В. Арнольд. Сб. ст.; – СПб., 1999.

etishgan. O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida intermatnlik masalasi M.Yo‘ldoshev, D.Xudoyberganova, Z.Salieva, D.Andaniyozova, M.Xolbekov, I.Azimova, M.F.Xomidova, L.U. Muzafarova<sup>4</sup> kabi olimlar ishlarida ma’lum darajada o‘rganilgan. Matnlararo aloqalar nuqtai nazaridan zamonaviy adabiyotni ham, mumtoz asarlarni ham, shu jumladan, ko‘p sonli aloqalar va ta’sirlar yaqqol kuzatiladigan milliy adabiyotni ham maxsus tadqiqot obekti sifatida o‘rganish taqozo etiladi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy o‘zbek va ingliz nasrida ma’no-mazmun yaratish usuli sifatida intermatnlikning o‘ziga xosligini, madaniy xotirani saqlash va uzatishdagi rolini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy filologiya uchun nisbatan yangi tushunchalar bo‘lgan intermatnlik va transmatnlik hodisalarining genezisi hamda nazariyasining ilmiy va poetik asoslarini ochib berish;

Isiguro Kadzuo, Isajon Sulton va Bahodir Qobullarning intermatnlik yaratishning iqtibos, o‘zlashma nutq, havola, referensiya, allyuziya kabi usullardan foydalanish mahoratini asarlari tahlili orqali asoslash;

allyuziv onimlar – ma’lum bir xalqning madaniy xotirasini saqlash hamda uzatish bilan bog‘liq tarixiy va madaniy xususiyatli lisoniy birliklarning ingliz va o‘zbek nasrida intermatn yaratishning muhim turi ekanligini dalillash;

pretsedentlik hodisasi intermatnlikning turlaridan biri sifatida muayyan etnosning, ham alohida shaxsning madaniy qadriyatlarini tizimini namoyon qilishini asoslash;

Isiguro Kadzuo va Isajon Sulton, Bahodir Qobul ijodining milliylikdan yuqori turuvchi universal xususiyatlari, qissa va romanlaridagi ijodiy uslubi sifatida intermatnlik hodisasining o‘ziga xos va mushtarak xususiyatlarini aniqlash.

---

443 с. Фатеева Н.А. Интертекст в мире текстов. Контрапункт интертекстуальности. – М.: КомКнига, 2007. – 282 с.; Кузьмина Н. А. “Интертекст и его роль в процессах эволюции поэтического языка. – Е., 1999. – С.8-10.; Смирнов И. П. Порождение интертекста. Элементы интертекстуального анализа с примерами из творчества Б. Пастернака Текст. / И. П. Смирнов. 2-е изд. – СПб, 1995. – С.189

<sup>4</sup> Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 128.; Салиева З. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сенцентии в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. кан. филол. наук. – Т., 2010.; Анданиёзова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2017. – Б. 48.; Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2013. – № 6.; Азимова И. Ўзбек газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. Фил. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 119.; Худойберганова Д. Бадиий матннинг антропоцентриқ тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 103-119. Музафарова Л. Билим тузилмаларининг бадиий интертекстуаллик кўламида концептуаллашуви (Ж.Д.Сэлинжер асарлари мисолида). Фил. Фан. б. дисс. автореферати – Т., 2022. – В. 25.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Isiguro Kadzuo asarlari hamda qiyos uchun milliy adabiyotimiz vakillaridan Isajon Sulton, Bahodir Qobul qissa va romanlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Isiguro Kadzuo va Isajon Sulton, Bahodir Qobul ijodining milliyligidan yuqori turuvchi universal xususiyatlari, qissa va romanlaridagi ijodiy uslubi sifatida intermatnlik hodisasining o'ziga xos va mushtarak xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada poststrukturalistik, analitik, psixologik, chog'ishtirish, matnlararo o'zaro aloqalarni aniqlashda tarixiy-madaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Isiguro Kadzuo, Isajon Sulton va Bahodir Qobul nasrida subyektiv xotiraning asar markaziga olib chiqilishi, ilmiy-fantastika va psixologik roman unsurlarining uyg'unlashuvi, janrlarning sinkretik xususiyat kasb etishi va noan'anaviy sujet qisqa parchalardan iborat voqelik hamda o'sha voqelikning ramziy tafakkur orqali ifodalanishiga ko'ra, postmodern adabiyotiga xos "intellektual o'yin" va transmatn yaratishning intermatn, paramatn, metamatn, arximatn, gipermatn kabi unsurlaridan unumli foydalanganligi asoslangan;

xoronimlar, gidronimlar, astionimlar, oronimlar, oykonimlar, urbonimlar kabi pretsedentli toponimlardan yaratilgan intermatnlik madaniy xotirani uyg'otishi, intertekstual ko'prik yaratishi, ramziy va esxatologik qatlam hosil qilishi sababli "Bog'dagul", "Ota chiroq", "Bog'i eram", "Boqiy darbadar", "Halovat topmaganlar", "Dafn etilgan bahaybat" asarlarida xotira, xayol, tush singari ong oqimi turlarining dinamik suratini taminlashi, zamonga oid o'tmish, hozir va kelajak nuqtalarini bog'lashi aniqlangan;

Isiguro Kadzuo xotira, unutish va ruhiy iztiroblar konfliktini ochishda, Isajon Sulton falsafiy, metafizik va meta hikoyalarni ifodalashda, Bahodir Qobul ijtimoiy-tarixiy mavzular va jamiyatdagi konfliktlar talqin etishida to'rt unsur: suv, havo, olov va tuproq poetikasidan unumli foydalanganliklari dalillangan;

intermatnlik madaniy-tarixiy davrlarga mansub "Mantiq ut tayr", "Hamsa", "Don Kixot", "Iveyn yoki sherdor Ritsar" kabi pretsedentli matnlar, universal arxetiplar, safar va sinov motivlari, qahramon tipologiyasi, madaniyatlararo umumiy qadriyatlarni ifodalashiga ko'ra matnlar o'zaro aloqasining shakli, madaniy xotirani saqlash va iqtibos, o'zlashma nutq, havola, referensiya, allyuziya yordamida qayta yaratish usuli ekanligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

zamonaviy filologiya uchun nisbatan yangi tushunchalar bo'lgan intermatnlik va transmatnlik hodisalarining kelib chiqishi va nazariyasining ilmiy asoslarini ochib berilgan;

Isiguro Kadzuo va Isajon Sulton, Bahodir Qobul o'z ijodida intermatnlik yaratishning iqtibos, o'zlashma nutq, havola, referensiya, allyuziya kabi usullardan foydalanish mahoratini asarlari tahlili orqali asoslangan;

allyuziv toponimlar – ma'lum bir xalqning madaniy xotirasini saqlash hamda uzatish bilan bog'liq tarixiy va madaniy xususiyatli lisoniy birliklarning jahon va o'zbek nasrida intermatn yaratishning muhim turi ekanligini dalillangan;

pretsedentlik hodisasi intermatnlikning turlaridan biri sifatida muayyan etnosning, ham alohida shaxsning madaniy qadriyatlari tizimini namoyon qilishini asoslangan;

Isiguro Kadzuo va Isajon Sulton, Bahodir Qobul ijodining milliylikdan yuqori turuvchi universal xususiyatlari, qissa va romanlaridagi ijodiy uslubi sifatida intermatnlik hodisasining o‘ziga xos va mushtarak xususiyatlarini aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiyada muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning poststrukturalistik, qiyosiy-tipologik, analitik, psixologik, chog‘ishtirish, psixoanalitik matnlararo o‘zaro aloqalarni aniqlashda tarixiy-madaniy tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, ingliz va o‘zbek adabiyoti namunalarini ilmiy jihatdan qiyosiy o‘rganish, Isiguro Kadzuo va Isajon Sulton, Bahodir Qobul ijodining milliylikdan yuqori turuvchi universal xususiyatlari, qissa va romanlaridagi ijodiy uslubi sifatida intermatnlik hodisasining o‘ziga xos va mushtarak xususiyatlarini o‘rganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar, tarjimachilik va jahon adabiyoti, badiiy obraz poetikasi, ijtimoiy motivlar, uslub va individuallik, hikoyalarda voqelikni badiiy idrok etishda detal va tasvir, voqealar rivoji va yechim paradoksi munosabatlari muammolariga doir tadqiqotlarda hamda qiyosiy tipologik muammolarini o‘rganishda qo‘l kelishi, oliy o‘quv yurtlari uchun darslik, o‘quv hamda uslubiy qo‘llanmalar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Badiiy matn hozirgi o‘zbek va ingliz nasrida intermatn hodisasi talqini bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Isiguro Kadzuo, Isajon Sulton va Bahodir Qobul nasrida subyektiv xotiraning asar markaziga olib chiqilishi, ilmiy-fantastika va psixologik roman unsurlarining uyg‘unlashuvi, janrlarning sinkretik xususiyat kasb etishi va noan’anaviy sujet qisqa parchalardan iborat voqelik hamda o‘sha voqelikning ramziy tafakkur orqali ifodalanishiga ko‘ra, postmodern adabiyotiga xos “intellektual o‘yin” va transmatn yaratishning intermatn, paramatn, metamatn, arximatn, gipermatn kabi unsurlaridan unumli foydalanganligi asoslanganligi xususidagi xulosalardan 2022-2024-yillarda Germaniya akademik almashinuv xizmati DAAD tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348-sonli “European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va G‘arb tadqiqotlari” nomli loyiha doirasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025 yilning 2-maydagi 06/2883-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida bugungi o‘zbek va ingliz nasrida transmatn yaratishning usullari va muallif individual uslubi shakllanishida intermatnlilikning ahamiyati haqida ma’lumotlar to‘ldirildi.

xoronimlar, gidronimlar, astionimlar, oronimlar, oykonimlar, urbonimlar kabi pretsedentli toponimlardan yaratilgan intermatnlik madaniy xotirani uyg‘otishi,

intertekstual ko‘prik yaratishi, ramziy va esxatologik qatlam hosil qilishi sababli “Bog‘dagul”, “Ota chiroq”, “Bog‘i eram”, “Boqiy darbadar”, “Halovat topmaganlar”, “Dafn etilgan bahaybat” asarlarida xotira, xayol, tush singari ong oqimi turlarining dinamik suratini taminlashi, zamonga oid o‘tmish, hozir va kelajak nuqtalarini bog‘lashi aniqlanganligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limi qoshidagi “Sadoqat” ijodiy to‘garagi faoliyatida, adabiy kechalarda, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarda foydalanilgan (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limining 2025 yilning 22-aprelidagi № 01-03|186-son ma’lumotnomasi). Natijada, bugungi o‘zbek va ingliz nasrida intermatn sifatida ishtirok etayotgan toponimlarning muayyan xalq yoki millat tarixi va madaniyatida tutgan o‘rni, jug‘rofiy va badiiy vazifalariga aniqliklar kiritildi.

Isiguro Kadzuo xotira, unutish va ruhiy iztiroblar konfliktini ochishda, Isajon Sulton falsafiy, metafizik va meta hikoyalarni ifodalashda, Bahodir Qobul ijtimoiy-tarixiy mavzular va jamiyatdagi konfliktlar talqin etishida to‘rt unsur: suv, havo, olov va tuproq poetikasidan unumli foydalanganliklariga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent B.Xoliqov rahbarligida 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan 201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025 yil 29-aprelidagi № 01/4 – 1744 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, davrning qadriyatlar tizimini, uning tarixiy-madaniy kontekstini va adabiy an‘analarini aks ettirishda, madaniy xotirani saqlash va keyingi avlodlarga uzatishda, asarlarning badiiy olamida mujassamlashgan muallif ongining o‘ziga xosligi va betakrorligini ochib berishda to‘rt unsurdan foydalanishning ahamiyati belgilandi.

intermatnlik madaniy-tarixiy davrlarga mansub “Mantiq ut tayr”, “Hamsa”, “Don Kixot”, “Iveyn yoki sherdor Ritsar” kabi pretsedentli matnlar, universal arxetiplar, safar va sinov motivlari, qahramon tipologiyasi, madaniyatlararo umumiy qadriyatlarni ifodalashiga ko‘ra matnlar o‘zaro aloqasining shakli, madaniy xotirani saqlash va iqtibos, o‘zlashma nutq, havola, referensiya, allyuziya yordamida qayta yaratish usuli ekanligiga doir xulosalardan “Samarqand” telekanalida 2025-yil 3-may kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” tonggi dasturining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand davlat teleradiokompaniyasining 2025 yilning 8-maydagi 01-07/185-son ma’lumotnomasi). Natijada, Isiguro Kadzuo va Isajon Sulton, Bahodir Qobul ijodida pretsedentlik hodisasi intermatnlikning turlaridan biri sifatida muayyan etnosning, ham alohida shaxsning madaniy qadriyatlari tizimini namoyon qilishi, matnlararo o‘zaro aloqalarni aniqlashda tarixiy-madaniy tahlil usullarining imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar olindi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 145 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyamizning birinchi bobi **“Intermatn hodisasining tarixi va nazariyasi”** deb atalgan bo'lib, uning birinchi faslida “Matn va intermatnlikning poetik asoslari” o'rganiladi.

Matn va intermatn nazariyasi antik zamonlardan raqamli tajribalar davrigacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi va matnning alohida tadqiqot obekti deb tushunilishi uzoq vaqt mobaynida fanda ustuvor maqomda bo'lib keldi. XX asrda tilshunoslikda strukturalizm va poststrukturalizm, adabiyotshunoslikda modernizm va postmodernizm, falsafada dekonstruktivizm kabi sohalar taraqqiy etgani hamda ularning ta'siri ostida matn alohida, avtonom mavjud bo'lolmasligi, har qanday matn boshqa matnlar bilan o'zaro aloqa va o'zaro ta'sirda mavjudligi g'oyasi vujudga keldi. Bugungi kunga kelib esa, bu g'oya keng targ'ib topdi va rivojlantirildiki, endi zamonaviy matn uni yaratuvchi, uni qabul qiluvchi va u yaratilgan hamda “yashayotgan” madaniy muhit orasidagi chegara va farqlar xiralashgan bir holatdagi o'zaro munosabatda mavjuddir.

Bugungi jahon adabiyotshunosligida intermatn deganda quyidagi xususiyatlar nazarda tutiladi:

1. Bundan avval yaratilgan barcha matnlar ishtiroki kuzatiluvchi har qanday matn;
2. Boshqa matnlardan olingan ko'chirmalar va reminissensiyalardan foydalanish asosidagi badiiy matnni qurishning asosiy turi va uslubi;
3. Barcha mavjud matnlar yig'indisi;
4. Matn diskursiv modelining muayyan darajasi tushuniladi.

“Intermatn” va “intermatnlik” terminlari fransuz poststrukturalistlari tomonidan kiritilgan, lekin hodisaning o'zi u paydo bo'lguncha mavjud bo'lganligini aytib o'tish lozim, chunki u yozma ijodning uzviy bir qismidir. Intermatnlikning nazariy sarchashmalarini faqat fransuz poststrukturalistlari ishlaridan izlash xatolik bo'ladi. Arastudan tortib, rus formalistlarigacha matn nazariyasiga va matnlararo muloqotga katta qiziqishni kuzatish mumkin. Intermatnlik nazariyasining ayrim xususiyatlarini Aflotun, Arastu asarlarida ham ko'rish mumkin. Qadimgi yunon olimlari uchun matn ishontirish quroli bo'lib, uni

qo‘llashda kuchli mantiqqa hamda avval o‘tgan nufuzli mualliflar va yaratilgan mashhur asarlarga tayanilgan. Misol uchun, miflarga, afsonalarga va aytaylik, Homer dostonlariga tayanib fikr yuritish shunchaki nutqni bezash emas, balki shu fikrni asoslash uchun ham zarur edi.

Intermatnlik yaxlit bir butunlik va mantiqiy bog‘liqlik bilan bir qatorda turib, badiiy matnga xos bo‘lgan ustuvor kategoriyalardan biri sifatida tavsiflanmoqda. Intermatnlik nafaqat matnning chegaralarini, balki qardosh fanlar – semiotika, mantiq, estetika, adabiyot nazariyasi, germenektika, matnning filologik tahlili va umuman, san’atning har xil turlari bilimlaridan foydalangan holda matnning ilmiy tadqiqotlari sarhadlarini ham kengaytirishga imkon yaratmoqda.

Taniqli fransuz strukturalist olimi Jerar Jenett intermatnlikni transmatnlikning boshqa: paramatnlik, metamatnlik, arximatnlik va gipermatnlik kabi to‘rt kenja kategoriyalari qatorida ko‘radi.<sup>5</sup>

Postmodernizm adabiyotida “intellektual o‘yin” asosiy o‘rin tutadi. Shu jihatdan intermatnlikning allyuziya, parodiya, stilizasiya kabi usullari qo‘llanilganda matnni idrok etuvchi o‘quvchi o‘ziga xos o‘yinning ishtirokchisiga aylanadi. Hech narsa demasdan, ko‘p narsa ayta olish usuli sifatidagi allyuziyani topishda o‘quvchi aqlu zakovati va xotirasini, bilim-tajribasini ishga soladi. Jahon adabiyotining durdonalariga qilingan parodiyalarni ilg‘ab ololgan o‘quvchi madaniy-estetik zavq oladi. “O‘yin” jarayonida matnda o‘ziga yaxshi tanish uslubga taqlidni ko‘ra olganda ham shunday holat yuz beradi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Badiiy talqinning yangicha tamoyillari” deb ataladi.

Badiiy madaniyatning evolyutsiyasi natijasida o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab adabiy asar tahliliga yondashuvda ham muayyan o‘zgarishlar yuzaga keldi. Yozuvchilar ham, adabiyotshunoslar ham har xil yo‘nalishlar tutashgan aralash va qorishiq san’at turlari doirasida faoliyat olib bora boshladilar. Ilmiy terminologiya hududlari kengaydi, yangi tadqiqot usullari, metodlari joriy qilindi. Avval bir butun sifatida qaralib, keyin matn va badiiy asar o‘rtasidagi farqlar joriylangach, bir qator yangidan-yangi, bir-birini taqozo etadigan atamalar paydo bo‘ldi. Jumladan, D.Gachev muqaddas diniy kitoblarni “mutlaq matn” deb hisoblaydi. Dinshunos va ulamolarning sharh va talqinlarini “kanonik matnlar” sifatida e’tirof etish urfga aylandi.

XX asr oxiri fan va adabiyotda “yo‘qolgan” matn atamasi paydo bo‘ldi. Olimlar bu matnlarning bir necha xil ko‘rinishlari haqida so‘z yuritishadi:

1) Matn butunlay yo‘qolib, uning faqat nomi va mazmunidan mutaxassislar, tadqiqotchilar xabardor. Masalan, Hamzaning “Boy ila xizmatchi” dramasi kabi;

2) Matn yo‘qolib, undan ayrim satrlar, sarlavhasi, muallif nomi saqlanib qolingan. Masalan, Muhammad Avfiyning “Lubobul-albob” asarida yuzlab shunday shoirlar va ularning ayrim baytlari saqlanib qolganidek.

“Ta’qiqlangan matnlar” atamasi ham mavjudki, bu ko‘proq totalitarizmga asoslangan davlatlarda uchraydi. Masalan, “O‘tgan kunlar”, “Kecha va kunduz”

---

<sup>5</sup> Gérard GENETTE, *Palimpsestes: la littérature au second degré*, Paris, Éditions du Seuil, 1982, – 468 p

romanlari 1956-yilga qadar ta'qiqda bo'lgan. Jumladan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanining qayta nashr qilinishiga yana 30 yillar vaqt ketgan.

"Sharhlangan" matnlar atamasini XX asrning so'ngida skandinaviyalik adabiyotchilar iste'molga kiritishdi. Matnning 80, 90 foizigacha qismi sharhlashga ketadi. Ma'lum bo'lishicha, badiiy asarning asosiy estetik va ilmiy ahamiyati u haqida yozilgan izoh, sharh, ma'lumotlarda namoyon bo'ladi. Masalan, shved yozuvchisi Peter Kornel "Jannatga yo'l" asarida sharhlangan matnning noodatiy sujetini taqdim etadi: a) jannatning markazi; b) u erdan quvilish; d) insoniyatning keyingi mashaqqatli hayot yo'li tarzida.

Matn va intermatn, arximatn va arxijanr, ong oqimi yagona matn sifatida kabi tushuncha va atamalar ham o'tgan asr oxirlarida adabiyotshunoslik iste'moliga kiritilgan yangiliklardir. Yangi terminologiyada intermatn o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, qamrov doirasi nihoyatda kengki, biz tadqiqotimiz davomida uning xos alomatlariga qayta-qayta to'xtalamiz va tadqiqot obektidagi yozuvchilarning asarlari tahlili orqali masalaning mohiyatini ochishga harakat qilamiz.

Kadzuo Isiguroning o'nlab romanlari zamonaviy jahon adabiyotida intermatnga asoslangan asarlar sifatida adabiyotshunoslarning e'tirofiga sazovor bo'lgan. "Halovat topmaganlar" romani yozuvchi ijodining bu boradagi yetuk namunalaridan biridir va u ko'plab adabiy sovrinlarga erishgan. Roman bir tomondan, F.Dostoevskiyning "Xo'rlanganlar xa haqoratlanganlar" romaniga allyuziya, ikkinchi tomondan F.Kafkaning badiiy metodini mantiqan rivojlantirganligi bilan ham intermatnlik kasb etadi. Asarning bosh qahramoni o'zining shaxsiy hayoti va ijtimoiy hayot o'rtasiga chegara qo'yolmaydi. Uning go'yo shaxsiy hayoti yo'qdek va u butunlay ijtimoiy hayotga singib, o'zligini yo'qotgandek taassurot qoldiradi.

"Halovat topmaganlar" asarining qahramonlari nafaqat yarim asr, balki 20-25 yil avvalgi adabiy qahramonlardan keskin farq qiladi. Bu qahramonlar bugungi kunning, bugungi zamonning kishilari prototipi. Oldingi adabiy xarakterlar bilan qiyoslaganda orzu-intilishlari, hayotiy qarashlari, shaxsiyati maydalashib, bachkanalashib ketgan obrazlar galereyasidek.

Modernizm adabiyotida jamiyatdan begonalashuv motivi kuchli. Masalan, Kafkaning "Jarayon", G.Gessening "Cho'l bo'risi", A.Kamyuning "Begona" asarlari misolida bunga ishonch hosil qilish mumkin. Shuningdek, davlat qurilish tartibotlarining shaxsga tazyiqi, barchani yagona qolipga, bir xilda itoatkor qilishga intilishi va bu borada yuritadigan siyosati va mafkurasi ham modernistlarning sevimli mavzularidan. Biroq postmodernizm da bu munosabatlar halqasida bir qator o'zgarishlar yuzaga keldi. Jamiyatga, ijtimoiy hayotga uyg'unlashib ketish, ya'ni muvofiqlashish va ko'nikish postmodernizmning xos alomatiga aylandi. Jumladan, Kadzuo Isiguroning "Halovat topmaganlar" romanida ham shunday. Davr voqeligi modernizmning kartalarini chalkashtirish evaziga postmodernizmni boshlab berdi. Modernizmning isyonkor qahramoni postmodernizm zamonida itoatga keldi. Jamiyatni boricha qabul qilishga, unga singib ketishga intilish kuchaydi.

K.Isiguro nasridan farqli ravishda B.Qobul nasrida xronotop yagona makon va zamon o'lchamlarida kechadi. Uning nasrida intermatnlilikning rang-barang, shu bilan birga, o'ziga xos, original ko'rinishlarini uchratish mumkin. Misol uchun,

“Bog‘dagul” asarida roviy tomonidan “Gulbog” atalgan she’riy turkum beriladi. Bu turkum Alisher Navoiy qit’a va g‘azallarining ayrim bandlaridan tashkil topgan o‘ziga xos yangi asardek taassurot qoldiradi.

B.Qobul nasrining yana bir jihatiga to‘xtalish zarurki, bu unda ham maqol, matal, hikmatli so‘zlar, aforizmlarning ba‘zan aynan, ko‘pincha yangi ishlov berilgan variantda tig‘iz joylashganligida ko‘rinadi. “Bog‘dagul” asarining bu hikmatomuz xalqona donishmandlik namunasi bo‘lgan intermatnlilikning ketma-ket kelganligini, “Bog‘dagul” matni yaratilguncha mavjud bo‘lgan matnlarning yangilangan, saralangan namunalarini uchratamiz.

Bugungi postmodern nasrda turli xil uslublar: badiiy, publitsistik, ilmiy, terminologik ifoda yo‘sinlarining aralash qo‘llanilganligi fikr va hissiyotlarni mana shunday ko‘lamli ifoda etish uchun vosita va sabab bo‘layotganligini aytib o‘tish joiz. Ushbu nasr namunalarining ba‘zilarida ilmiy asarlardagidek keltirilgan ko‘chirmalar sahifa so‘ngida manbasi bilan ko‘rsatilmoqda. Tushunarsiz so‘zlarning izohi ham ba‘zan sahifa oxirida, ba‘zan asar so‘ngida alifbo tarzida berib boriladi. Masalan, intermatnlilikni san’at darajasiga ko‘targan L.Borhes asarlari so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati ham berilmoqda. B.Qobul nasrida esa ilgari realistik nasrga xos bo‘lmagan bunday kompozitsiya tuzilishi ham sal boshqacharoq. Misol uchun o‘quvchiga tushunarsiz so‘z uchrab qolsa, uning lug‘aviy ma‘nosi badiiy bo‘yoqdorlikda matn ichida berilaveradi. “Bog‘dagul” asarining 23-betida “ovush” so‘zi ishlatilib, uning lug‘aviy ma‘nosiga ham izoh va sharh berib ketilaveradi.

Isajon Sulton nasrida, xususan, falsafiy ruh kuchli “Boqiy darbadar”da sujet qurilishi, xarakter qiyofasi, xronotop masalalari sal boshqacharoq yo‘sinda hal qilinadi. Birinchidan, “Boqiy darbadar”dagi sujet chizig‘i yagona markazga jamlanmaydi, har bir fasldagi hikoya, rivoyat alohida-alohidadek taassurot qoldiradi. Ikkinchidan, sujetdagi har bir rivoyat va hikoyaning o‘z qahramonlari bor. Uchinchidan, bular o‘z navbatida xronotopning rang-barang ko‘rinishlarini yuzaga keltirgan.

Dissertatsiyaning **“Postmodern va globalashuv davri adabiyotida intermatnlilik”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Intermatnlilik yaratish usullari: allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoya” hamda “Isajon Sulton nasrida intermatn va milliy ruh ifodasi” haqida so‘z boradi.

Adabiyotshunoslikda allyuziya deb, umumma‘lum hodisa, sujet va jumлага havolaga, ishoraga aytiladi. Allyuziya yordamida mualliflar o‘z asarlarini yangi ma‘no-mazmunlar bilan boyitadilar, mifologiya, tarix, adabiyot va falsafani qayta anglaydilar hamda o‘tmish bilan munozaraga kirishadilar. “Allyuziya” lotincha allusidere so‘zidan hosil qilingan bo‘lib, uni “hazil ishora” sifatida tarjima qilish mumkin. Intermatnlilik adabiyot mavjudligining shaklidir. Muloqot jarayonida matn talqinining faol ishtirokchisi o‘quvchi hisoblanadi. Asar ma‘no-mazmunini tushunish uning hayotiy, madaniy va tarixiy tajribalari tufayli yuz beradi. Idrok etilayotgan asar ta‘sirida o‘quvchi o‘zini o‘rab turgan olamni yangicha qiyofada ko‘ra boshlaydi. Matn tushunilmay qolmasligi yoki yuzaki, qisman tushunilmasligi uchun o‘quvchi yuqori darajada bilimdon bo‘lishi lozim va intermatnda yashirilgan zaruriy ma‘lumotni topa olishi shart. Allyuziya verbal vosita bo‘lib, uning

yordamida muallif o‘zining g‘oyalarini ixcham va qisqa shaklda ifodalashi uchun ularni muayyan qobiqqa o‘rashi lozim. O‘quvchining vazifasi – matndagi shu qobiqni ko‘ra olish va unga yashirilgan ma’lumotni kashf qila olishdir.

Tadqiqotchilar intermatnlikning turli belgilarini alohida ajratadilar: iqtibos, o‘zlashma nutq, havola, referensiya, allyuziya kabilar. Shular jumlasiga allyuziv toponimlar – geografik nomlar, til sohibi tomonidan idrok etilish va uning kognitiv hamda milliy olam manzarasida saqlanish jarayoni bilan bog‘liq tarixiy va madaniy xususiyatli lisoniy birliklar hisoblanadi. Toponim ma’lum bir xalqning madaniy xotirasini saqlash va uzatish vositalaridan biridir.

Tadqiqotimizda toponimlarning uch semantik sathini alohida ajratishni taklif etamiz: 1) aniq obekt/voqelik hodisasiga mansub toponim, 2) kelib chiqish bilan bog‘liq va tarixiy hamda mifologik toponimlar, 3) assotsiativ toponimlar. Ikkinchi va uchinchi sathlar obektiv makonning o‘ziga xosligini etnik, hududiy, mifologik, madaniy-tarixiy, milliy aloqalarni hisobga olgan holda namoyon qiladi.

Toponimlar ma’lum faktlarga oid ma’lumotlarga nisbatan yanada mazmunliroq bo‘ladi, chunki azaldan joy, manzilning nomini muayyan shaxs yoki hodisaga bog‘lash an‘anasi mavjuddir. Shu sababli har bir geografik nom ortida millatning tarixi, an‘analari, turmush tarzi, muallif taassurotlari yotadi.

Bahodir Qobul “Tanovor” asarida intermatn yaratishda kinoyani ustalik bilan qo‘llagan holda “o‘z” O‘quvchisi makoni chegaralarini kengaytiradi, asar matnini chuqur va to‘liq talqin qilinishiga ko‘maklashadi. Misol uchun, biz asar matnida keltirilgan allyuziv kinoyalardan rus istilosi oqibatida O‘rta Osiyoga, xususan Jizzax erlariga Rossiya tomonidan aksariyat nomaqbul kimsalar kirib kelganini oson anglab olishimiz mumkin:

*“Oq poshshoning yaqinlari ko‘ziga yomon ko‘ringanligi, o‘sha yer-joy, zavod fabrika obro‘li bir odam ko‘ziga yaxshi ko‘ringanligi, unday odamni rayini qaytarish madaniyatga to‘g‘ri kelmasligi, aytilgan vaqtda aytilgan pora aytilgan joyga aytilganday qilib yetkazilmaganligi, oyoq ostidan chiqib qolib kayfiyatga tegilayotganligi, bu holatda ishlab bo‘lmasligi, nimaga yoki kimga halaqit berilganligini hech kim bilmasa-da; halaqit berganligi aniqligi, bundaylarga buncha mol-davlatga ega bo‘lish yarashmasligi kabi ayblovlarga sazovor boylar, ilmi va tili to‘g‘riligi sharofatidan Sankt-Peterburg, Moskva, shu qatorda katta shaharlarga kirish taqiqlangan va surgun bo‘lganlardan tashqari, “aybini oqlash uchun xizmatga yuborilgan”larning ichida birona sog‘i yo‘q edi”.*<sup>6</sup>

Badiiy matnning metamatnli imkoniyatlari va shu imkoniyatlarni jalb qilishda voqelanuvchi intermatn muallifga o‘z aksiologik (baholash) tizimini eksplitsitli yoki implitsitli ifodalash imkonini beradi va bunda metamatn aynan kinoyaviy matnda to‘liqroq gavdalanadi. R.Bart ta’biri bilan aytganda, matn tugallangan mahsulot emas, balki hozir va shu yerda yuz berayotgan, boshqa matnlar, boshqa kodlarga ulangan hamda shu jamiyat bilan, uning tarixi va madaniyati bilan bog‘langan jarayondir.<sup>7</sup>

<sup>6</sup> Qobul B. Отачиروق. Тошкент, “MASHHUR – PRESS”, 2021, – В.368.

<sup>7</sup> Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика / Р. Барт; пер. с фр.; сост., общ. ред. и вступ. ст. Г.К. Косикова. – М.: Прогресс, 1989. 616 с.

Isajon Sultonning barcha yozganlari bitta matn xisoblanadi. U ana shu matnini yozishda turli darajadagi o'zigacha bo'lgan matnlardan o'rgangan, ta'sirlangan, ular bilan muloqotga va munozaraga kirishgan, ularga imo-ishoralar qilgan, ko'chirmalar keltirgan, ma'qullangan yo inkor qilgan, dialogga kirishgan va hokazo. Uning matnida jahon adabiyotidan, sharq mumtoz she'riyatidan, tasavvufdan, falsafadan, folklordan, psixologiya, genetika va boshqa ilmlardan o'zlashtirilgan malaka va tajribalarining izini ko'rishimiz mumkinki, bularning bari I.Sulton matnida intermatnlik muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Ijod psixologiyasining murakkab qonuniyatlariga ko'ra, G.Marquesning "Yolg'izlikning yuz yili" romanida Makondoning yer yuzidan yo'qotib yuborilishi Isajon Sultonda shahri Haybar haqidagi sharq rivoyatiga e'tibor qaratilishiga sabab bo'lganki, bu ham bugungi romanda intermatnlik hodisasining ongosti bilan bog'liq jarayonlariga ham to'xtalish zaruratini keltirib chiqaradi.

"Boqiy darbadar"ning "Ibtido" atalgan boshlanishidagi bir yarim sahifalik hikoya Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" romanida Iso Masihning qatliga olib borganlari haqidagi hikoyadan yuzaga kelgan "mato". Ya'ni bu epizod Isajon Sultonning mazkur romani yaratilguncha adabiyotda mavjud bo'lgan matn parchasi. Ko'rinib turibdiki, I.Sulton o'zigacha mavjud bo'lgan matnlardan o'z nuqtai nazarini ifoda etish maqsadida foydalangan, bu uning asarida intermatn hodisasining mustahkam qaror topganligini tasdiqlaydi.

"Ozod" romanida tabiat jonlantiriladi, tilsiz narsalarga til ato etiladi. "Boqiy darbadar"da vayronkor bo'ronga aylangan shamol bu romanda asrlar davomida xalqimizning hikmat, ma'rifat va yorug' kunlarga bo'lgan umidu ishonchini bag'rida asrab kelgan mo'jizaviy quvvat manbaiga aylanadi. Inson, nabotot, tabiat birligi va uyg'unligi ramziga aylanadi. Bunda Ozod "izlab chiqqan lola" shunchaki gul emas, hayotiy amal, tole va baxt timsoli. Ozodning o'y-hayollari, orzu-intilishlari, sa'y harakatlarida jilolangan ramzlar, timsollar, poetik g'oyalar, hikmatlar, epizodlar, misralar va nasriy iqtiboslar yagona bir garmoniyaga aylanib kitobxon xotirasi va qalbida yashab kelayotgan ma'naviy boyliklar olamiga yangicha ruh olib kiradi. Hazrati Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Cho'lpon, Mirtemir, Shavkat Rahmon, Muxammad Yusuf, Iqbol Mirzo, Ulug'bek Xamdani va yana ko'plab ijodkorlarimiz insho etgan matnlar bir o'zanga quyilib, hikmatlar, timsollar, tilsimlar jamlangan intermatn ro'yobga chiqaradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Umuminsoniy timsollarning intermatnli tahlili**" deb ataladi va uning birinchi faslida "Zamonaviy nasrda to'rt unsur badiiyati" o'rganiladi. Tadqiqotimizga obyekt qilib olingan Kadzuo Isiguro, Bahodir Qobul, Isajon Sultonlar nasrida ko'p uchraydigan, turlicha ramzlar va timsollar sifatida talqin qilinadigan, bugungi murakkab va shiddatli davrning ruhiy iqlimini idrok etishga yo'naltirilgan muhim asoslar sifatida olam va odamning yaratilish manbai bo'lgan to'rt unsur – suv, havo, tuproq, olov badiiyati muhim o'rin tutadi.

I.Sulton, B.Qobul asarlarida yuqorida sanab o'tilgan tabiat unsurlari falsafadan hayotga, milliy turmushga o'tib, yanada chuqur ma'nolar kasb etadi. Vaqtning oqimi, tabiatdagi o'zgarishlar yozuvchi talqinida ko'p hollarda inson hayotining harakatlanishi bilan o'zaro bog'lanadi. Shundan ayrim tabiiy obrazlar, xususan, suv,

olov, yer va havo kabi ilk stixiyalarning ramziy ma'nolar kasb etishi hamda mifopoetik an'analar kontekstida ularning chuqur falsafiy mohiyatga to'yinishi yuz beradi. I.Sulton, B.Qobullarning tushunishicha, tabiat – yaxshi va yomon, foniy va boqiy, zarur va foydasiz singari turli qarama-qarshiliklarning muvozanatida mavjud bo'lib turgan uyg'unlikdir. Jahon adabiyotining ko'plab namoyandalari singari I.Sulton, B.Qobul uchun ham tabiat mavzusi – milliy o'ziga xoslikni aks ettirishning eng muhim omillaridan biri, ushbu mavzu bevosita Vatan mavzusi bilan qo'shilib ketadi. Misol uchun, shamolning harakati Bahodir Qobul asarlarida tarixiy taraqqiyot yo'li bilan tabiat olamidagi hodisalar silsilasini o'zida birlashtiradi. Badiiy matnlardagi tabiiy ramzlar talqini asarda uzatilayotgan tub ma'nolarni anglab etish va obrazlarning ko'p qirrali qiyofasini teran tushunish imkonini beradi.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida "I.Kadzuo romanlarida intermatnli munosabatlar" o'rganiladi.

Zamonaviy britan yozuvchisi, adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori K.Isiguroning ijodi kitobxonlar, tanqidchilar va tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Jahon adabiyotshunosligida mazkur muallif uslubining alohida qirralari tadqiq etilgan yoki ijodiga umumiy tavsiflar berilgan qator ishlar mavjud. Eng ahamiyatli monografiya mualliflarini sanab o'tamiz: B. Lewis [Lewis, 2001], W. Sim [Sim, 2006], B. W. Shaffer [Shaffer, 2008], C. F. Wong [Wong, 2019].

Aytish lozimki, K.Isiguro ko'pgina romanlarida muallif ijodiy niyatining – o'quvchini ijodiy hamkorlikka yuqori darajada jalb qilishni amalga oshirish uchun mavhumlik muhitini yaratadi. O'quvchi muallif tomonidan aytilmagan va to'liq bildirilmagan fikrlarni mustaqil talqin qilishi, allyuziyalarni topa olishi va turli hodisalar, voqealar, ramzlarga o'z shaxsiy ma'nosini berishi lozim bo'ladi.

